

YEVROPA ITTIFOQI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI FAN, TA'LIM SOHALARIDAGI HAMKORLIK

*Nodirova Sevara Samariddin qizi –
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti, 2-
bosqich magistranti.*

Yevropa Ittifoqiga a'zo yirik davlatlar bilan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi hamkorligi va bevosita bu davlatlarning ko'magi va tajribasiga tayanib, taraqqiyot sari oimdlayotganligiga e'tibor qapatilgan edi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a'zo bo'lgan amalakatlar o'rtasidagi hamkorlikning muhim yo'nalishi bo'lmish ilmiy-texnik va madaniy sohalardagi aloqalar alohida o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishdagi aloqalar tomonlar o'rtasida imzolangan hujjatlar va yaratilgan huquqiy me'yorlar asosida o'z rivojini topib kelmoqda. Bu borada shuni ham ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi imliy-texnik va madaniy aloqalar asosida amalga oshirib kelmoqda. Hamkorlikni amalga oshirish jarayonida Yevropa Ittifoqining barcha a'zo mamlakatlari faol ishtirok etmoqda. Ammo, bir vaqtning o'zida bu jarayonda Yevropa Ittifoqining rivojlangan davlatlaridan Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Finlandiya mamlakatlari bilan O'zbekiston Respublikasi bu sohadagi hamkorlik aloqalari o'zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida ko'p tomonlama ilmiy-texnik va madaniy sohalardagi hamkorlik 1996 imzolangan va 1999 yilning 1-iyulidan amalga tadbiiq etila boshlangan "Sheriklik va Hamkorlik" to'g'risidagi bitim asosida amalga oshirilib kelinmoqda¹. SHU bilan birga, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ikki tomonlama hamkorlikka kirishishning huquqiy asoslari yaratilgan.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining xalqaro ilmiy aloqalari rivojida respublika Fanlar Akademiyasining xizmati kattadir. U ilg'or ilmiy tadqiqotlar va tabiiy hamda ijtimoiy ishlanmalar yutuqlari to'plangan ilmiy markaz hisoblanadi².

O'zbekistonda matematik statistika va rasional analiz, differensial va integral tenglamalar, sonlar nazariyasi va hisoblash matematikasi sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Ehtimollar nazariyasi bo'yicha "Toshkent maktabi" deb nom olgan ilmiy yo'nalish olamga mashxur bo'ldi. Yadro fizikasi va geofizika, elektronika va ayerogidromexanika va gaz dinamikasi yutuqlari ishlab chiqarishning tiurli sohalariga

¹ <https://mfa.uz/uz/pages/with-European-countries>

² <https://academy.uz/uz/page/xalqaro-ilmiy-texnik-alloqalar-rivoji>

tadbiq qilinmoqda. Biorganik va fizik-kimyoy, o'simlik moddalari va yuqori molekulyar birikmalar va sun'iy kimyoviy moddalar olish imkonini berdi. Botanika, biologiya, zoologiya va tibbiyot, biokimyoy, biofizika va xalqaro huquq, til va adabiyot, tarix va sharqshunoslik sohalarida yirik ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda³.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan ilmiy sohadagi hamkorligiga e'tibor qaratganda, bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, ilmiy tadqiqot markazlari va Fransiya tashqi ishlar vazirligi universitetlararo ilmiy tadqiqot hamkorligi boshqarmasi qaramog'idagi Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransiya Institut (MOTFI) va boshqa ilmiy markazlar faoliyatini ko'rsatish mumkin.

Saraqand arxeologiya instituti va fransuz ilmiy tadqiqot milliy markazi qadimiy Afrosiyobni o'rganish yuzasidan qo'shma loyihalar ishlab chiqdi va hayotga tadbiq etildi⁴.

2022-yil noyabridan 2023-yil martigacha Luvr muzeyida "O'zbekiston vohalarining mo'jizalari. Karvon yo'llari chorrahasida" va 2022-yil noyabrdan 2023-yil iyungacha Parij Arab dunyosi institutida "Samarqandga yo'l. Ipak va oltin mo'jizalari" ko'rgazmalari tashkil etildi.

Ayni paytda mamlakatimiz bo'ylab 581 ta maktabda 133 mingdan ortiq o'quvchi, shuningdek, 11 ta oliy o'quv yurtida 2 ming talaba fransuz tilini o'rganmoqda. Buxoro va Ruyel-Malmezon shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatilgan. 2019-yil aprel oyida Ruyel-Malmezon markaziy istirohat bog'ida "O'zbek bog'i" ochilib, uning hududida buyuk alloma Abu Ali ibn Sino haykali o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-oktyabrdagi PF-5551-son qarori bilan Fransiya fuqarolarining O'zbekiston hududiga kirishi uchun 30 kunlik vizasiz tartib o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ilm va fan rivojidadagi hamkorlik aloqalarida Germaniyaning ham o'rni alohida ajralib turadi. Adenauer jamg'armasi ko'magida Sant Augustin shahrida "[Amir Temur](#) va uning jahon tarixida tutgan o'rni" mavzuida ilmiy konferensiya, "Orol ekologik fojiasinng milliy va xalqaro aspektlari" simpoziumlari o'tkazildi.

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand universitetining Gumboldt nomidagi hamda Bamberg va Gyottingen shaharlaridagi universitetlar bilan hamkorligi samarali rivojlanayotir. O'zbekiston Respublikasida nemis millatiga mansub 25 mingga yaqin kishi yashaydi⁵. 2021-yil mart oyida O'zbekiston prezidenti va Germaniya kansleri o'rtasida videokonferensiya shaklidagi muloqot bo'lib o'tdi.

O'zbekistonning 40 dan ortiq oliy o'quv yurtlari Germaniyaning 55 dan ortiq oliy o'quv yurtlari va ilmiy-ta'lim tashkilotlari bilan 114 ta hamkorlik to'g'risidagi

³ <https://academy.uz/uz/page/xalqaro-ilmiy-texnik-aloqalar-rivoji>

⁴ Ф.О.Исматуллаев. Ўзбекистон Республикасининг Европа иттифоқи билан ҳамкорлигининг ўрнатилиши ва ривожланиши (1991-2005 йиллар). Автореферат. Т. 2011.

⁵ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

shartnoma va memorandumlar doirasida hamkorlik loyihalarini amalga oshirib kelmoqda⁶.

2021 yilda Toshkent shahrida tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston” universitetining tashkil etilishi ham Germaniya va O‘zbekiston ta’lim sohasidagi hamkorlik loyihalaridan biri sanaladi. Bugungi kunda yangi tashkil etilgan universitetda Germaniyaning Myunxen Texnika Universiteti standartlari asosida ta’lim dasturlari yuqori darajada amalga oshirib kelinmoqda.

Yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan 8 ming nafardan ziyod nemis millatiga mansub fuqarolarni birlashtiruvchi “Vidergeburt” nemis madaniyat markazi, “O‘zbekiston – Germaniya” do‘stlik jamiyatlari nemis madaniyati va an‘analarini saqlash, asrab-avaylash va rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda Konrad Adenauer va Fridrix Ebert nomidagi jamg‘armalar, Germaniya akademik almashuvlar xizmati (DAAD) vakolatxonalari, Gyote instituti va boshqa qator tashkilotlar faoliyati izchil yo‘lga qo‘yilgan⁷.

O‘zbekiston va Italiya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar holati tahlili ularning jadal rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida muntazam siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazilmoqda. 2021 yilning 8 dekabr kuni Toshkentda «Italiya – Markaziy Osiyo» shaklidagi ikkinchi vazirlar konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. 2005 yilda Italiya parlamenti tashabbusi bilan Italiya–O‘zbekiston Do‘stlik va hamkorlik Assosiativasi tashkil etildi. 2011 yil 22 dekabrda boshlab Oliy majlisda «O‘zbekiston–Italiya» parlamentlararo hamkorlik guruhi faoliyat yuritmoqda. Italiya Tashqi ishlar vazirligi italyan tili va adabiyotini o‘rganuvchi o‘zbek talabalariga o‘quv stipendiyalari ajratgan. O‘zbekistonlik 7 talaba Italiya akademiya va konservatoriyalarida ta’lim oldi. Samarkand chet tillar instituti va O‘zbekiston jahon tillari univ. italyan tilidan dars berish uchun Italiyadan malakali muallimlar kelishdi. Toshkentda Turin va Piza universitetlarining filiallari muvaffaqiyatli ishlamoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Madaniy meros agentligi bilan Italiya Restavratsiya bo‘yicha savdo agentligi, O‘zbekiston madaniyati va san‘atini rivojlantirish jamg‘armasi hamda Italiya Madaniyat vazirligi o‘rtasida madaniyat sohasida hamkorlik to‘g‘risida memorandumlar, tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2023–2024-yillardagi hamkorlik hamda 2026-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan madaniy almashinuv dasturlari imzolandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining yuksak ilmiy-texnik imkoniyatga ega ekanligi Yevropa Ittifoqiga a‘zo mamlakatlardagi kuplab ilmiy markazlar bilan samarali aloqalar olib borish imkoniyatini yaratdi. Bundan tashqari,

⁶ <http://www.ud.uz/uz/information/about/167/>

⁷ <https://yuz.uz/news/ozbekiston-va-germaniya-munosabatlarining-30-yilligiga-bagishlangan-xalqaro-konferentsiya-otkazildi>

ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda ta'lim sohasidagi aloqalar o'zining keng ko'lamliligi bilan ahamiyat kasb etadi. Bunday aloqalar, xalqaro andozalarga javob beradigan ta'lim tizimini isloh qilayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun o'zining salmoqli natijasini berdi. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlari bilan fan va ta'lim sohasidagi hamkorligi yangi bosqichga ko'tarilishi yetarli imkoniyatlar mavjudligi bu borada O'zbekistonning strategik maqsadlarga mosligini bildirib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. <https://mfa.uz/uz/pages/with-European-countries>.
2. <https://academy.uz/uz/page/xalqaro-ilmiy-texnik-alloqalar-rivoji>. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil <http://www.ud.uz/uz/information/about/167/>
3. Ф.О.Исматуллаев. Ўзбекистон Республикасининг Европа иттифоқи билан ҳамкорлигининг ўрнатилиши ва ривожланиши (1991-2005 йиллар). Автореферат. Т. 2011.
4. <https://yuz.uz/news/ozbekiston-va-germaniya-munosabatlaring-30-yilligiga-bagishlangan-xalqaro-konferentsiya-otkazildi>